



UDK:32(075.1)

Bekzod DJAMIYEV,
Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali dotsenti

Renessans ta'lim universiteti professori, f.f.d O.Musayev taqrizi asosida

THE PLACE AND ROLE OF IMPROVING THE ELECTORAL SYSTEM IN THE FORMATION OF THE NEW UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the characteristics and aspects of electoral systems and discusses elections and electoral systems in developed countries. It also examines the advantages and disadvantages of majoritarian, mixed, and proportional electoral systems. In the formation of the new Uzbekistan, the advantages of transitioning from the current majoritarian electoral system to a mixed electoral system initially, and then to a proportional electoral system, are discussed.

Key words: Elections, electoral system, qualification, political party, active electoral right, passive electoral right, majoritarian electoral system, mixed electoral system, proportional electoral system.

МЕСТО И РОЛЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИЗБИРАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ В СТАНОВЛЕНИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье анализируются особенности и аспекты избирательных систем, обсуждены выборы и избирательные системы в развитых странах. В статье также рассматриваются преимущества и недостатки мажоритарной, смешанной и пропорциональной избирательных систем. При формировании нового Узбекистана обсуждаются преимущества перехода от действующей в стране мажоритарной избирательной системы к смешанной избирательной системе на первом этапе, а затем к пропорциональной избирательной системе.

Ключевые слова: Выборы, избирательная система, ценз, политическая партия, активное избирательное право, пассивное избирательное право, мажоритарная избирательная система, смешанная избирательная система, пропорциональная избирательная система.

YANGI O'ZBEKISTONNI SHAKLLANTIRISHDA SAYLOV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'RNI VA ROLI

Аннотация

Ushbu maqolada saylov tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari va jihatlari tahlil qilingan. Rivojlangan mamlakatlardagi saylovlar va saylov tizimlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, saylov tizimlaridan mojaritar, aralash va proporsional saylov tizimlarining afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilingan. Yangi O'zbekistonni shakllantirishda bugungi kunda yurtimizda amal qilayotgan mojaritar saylov tizimidan kelgusida birinchi bosqichda aralash saylov tizimiga keyinchalik proporsional saylov tizimiga o'tishning afzalliklari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Saylov, saylov tizimi, senz, siyosiy partiya, aktiv saylov huquqi, passiv saylov huquqi, mojaritar saylov tizimi, aralash saylov tizimi, proporsional saylov tizimi.

Kirish. Siyosiy partiyalar muayyan ijtimoiy guruh va qatlamlarga xos xususiyat hamda ularning manfaatlarini ifoda etib kelayotgani bois globallashuv jarayonlari kechayotgan so'nggi yillarda ham dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ko'ppartiyaviylik tizimi tobora o'z maqomini mustahkamlab bormoqda. Ayni paytda, siyosiy partiyalarning jamiyat demokratik jarayonlaridagi roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Siyosiy partiyalar faoliyatini rivojlantirmasdan demokratik tizim tuzib bo'lmaydi. Siyosiy partiyalar jamoat tashkiloti hisoblanib, boshqa jamoat tashkilotlaridan asosiy farqli jihati ularga hokimiyat uchun kurashishga qonuniy huquq berilganligidir. Siyosiy partiyalar faoliyatini rivojlantirish va ularning jamiyatdagi mavqeini oshirish uchun saylov tizimini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, saylov tizimini takomillashtirish mustaqillikka erishgan davlatlarda fuqarolik jamiyati qurish uchun muhim va dolzarb vazifalardan biridir. Saylovlar tizimi bu - huquqiy meyorlarda mustahkamlab qo'yilgan, shuningdek davlat va jamiyat tashkilotlari faoliyatlari tajribasida

shakllangan vakillik organlari yoki ayrim rahbarlik vakilini saylashni o'tkazish va tashkil etish tartibotidir.

"Saylovlar tizimi - siyosiy tizimning tarkibiy qismi bo'lib, shuningdek u o'zi ham boshqa tizimlar kabi tuzilmaviy qismlarga bo'linadi: ularning ichida ikkitasi alohida ajralib turadi: 1) saylov huquqi - nazariy-huquqiy komponent; 2) saylov jarayonlari (yoki saylov o'tkazish jarayonini o'tkazishning izchillik asosidagi rasmiy tartibi) - amaliy-tashkiliy komponent.

Keng ma'noda talqin etilayotgan saylov huquqi tamoyillari va boshqa bir qancha omillar asosidagi saylovlarning muayyan tavsiflarini ko'rsatish va ularning turli ko'rinishlarini bir-biridan ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan: prezident, parlament va mahalliy saylovlar shuningdek, navbatdagi, navbatdan tashqari va qo'shimcha saylovlar ham bo'ladi.

Saylovlar umumiy - chegaralangan (senzli), teng - noteng, to'g'ri - bilvosita, yashirin - ochiq ovoz berish" [3] orqali o'tkaziladi.

Hozirgi dunyoning ko'plab demokratik mamlakatlari o'zlarining Konstitutsiyalari yoki maxsus saylovlarga doir qonunlarida fuqarolarni yashirin ovoz berish orqali umumiy va teng saylovlar huquqlarini e'lon qilgan. Bu tamoyillarga batafsilroq to'xtalamiz.

Saylovlarning umumiyligi qonunda belgilangan muayyan yoshga yetgan barcha fuqarolarning saylovlarda umumiy qatnashish huquqini ifodalaydi. Bu huquq asosida ham aktiv, ham passiv saylov huquqi tushuniladi. Lekin unisi ham, buni ham bir qator mamlakatlarda saylov senzlari deb ataladigan quyidagi omillar bilan chegaralanib qo'yilgan:

“Mulkiy va o'troqlik senzi; ma'lumotlilik senzi; yosh senzi va hokazo. Passiv saylov huquqi senzlari odatda aktiv saylov huquqi senzlaridan qattiqroq bo'ladi. Masalan, Kanadada Senatga faqat ko'chmas mulkka ega bo'lgan shaxs o'z nomzodini qo'yishi mumkin, Buyuk Britaniyada saylanish huquqini olish uchun ancha katta miqdorida saylanish kafolati uchun mablag' to'lanishi kerak bo'ladi. Parlamentlari ikki palati bo'lgan mamlakatlarda doimo yuqori palata uchun yoshga doir senzi yuqori bo'lishi lozim: AQSH va Yaponiyada 30 yosh, Fransiya 35 yosh, Belgiyada, Ispaniyada 40 yosh. Ayni vaqtda shuni ta'kidlash kerak-ki, dunyodagi demokratik jarayonlarni rivojlanishi senzli chegaralashlarni chetlab o'tmay, qadamma-qadam uni yumshatib borishga intilmoqda.

Ko'pchilik mamlakatlarda ilgari referendum o'rinda plebissit (umumxalq saylovi), umumxalq so'rovi, umumxalq fikrini o'rganish, umumxalq ovoz berishi kabi tadbirlar o'tkazib kelingan. Aniqlik, referendumga o'xshash tadbirlar qadimgi Yunoniston va Rimda, o'rta asrlarda esa Yevropaning barcha va Osiyoning ko'pchilik mamlakatlarida turli xil shakl, usul va maqsadlarda o'tkazib kelingan”[8].

Har bir mamlakat siyosiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va an'analariga qarab referendum vakolatini turlicha belgilaydi. Masalan, Fransiya, Shveysariya, Ispaniyada konstitutsion referendum o'tkazish an'anaga aylangan bo'lib, unga Konstitutsiyaning yangi loyihasi yoki Konstitutsiyaga kiritiladigan yangi qo'shimchalar qo'yilib, bu loyiha va qo'shimchalar xususida xalqning umumiy fikri aniqlanadi. Jumladan, Fransiya Konstitutsiyasining 3-moddasi quyidagicha ifodalangan: “Milliy suverenitet xalqqa tegishli bo'lib, uni o'z vakillari va referendum vositasida amalga oshiradi. Xalqning hech qanday qismi, hech qanday alohida shaxs uni amalga oshirishni o'ziga o'zlashtira olmaydi. Ovoz berish Konstitutsiyada ko'zda tutilgan sharoitlarga muvofiq to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita bo'lishi mumkin. U doimo umumiy, teng va yashirin bo'ladi...”[4].

Italiyada esa ko'pincha qonun chiqaruvchi referendumlar (yangi qonunlar loyihasi yuzasidan) o'tkaziladi. Italiya Konstitutsiyasining 75-moddasida referendum o'tkazish qoidalari mujassamlashtirilgan: “Qachonki, besh yuz ming saylovchi yoki beshta viloyat kengashlari talab etsalar, qonun yoki qonun kuchiga ega akti to'la yoki qisman bekor qilish uchun xalq referendumi tayinlanadi. Soliqlar va budjet, amnistiya va avf etishga doir qonunlarga nisbatan, xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish vakolatlariga ega referendumlar o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi. Deputatlar palatasini saylashga chaqirilgan barcha fuqarolar referendumda ishtirok etish huquqiga egadirlar [5].

Referendum o'ziga xos umumxalq so'rovi bo'lib, unda davlatning saylov huquqiga ega bo'lgan barcha fuqarolari qatnashishi ko'zda tutiladi.

Shuningdek referendumlarda ikki xil siyosiy tabiat mavjuddir: bir tomondan, referendum u yoki bu masala, yoki masalalar majmui bo'yicha xalq irodasini nisbatan to'laroq ifodalashga qobildir. Ikkinchi tomondan, referendum natijalari turli siyosiy guruhlar yoki partiyalarni xalq irodasi bilan kelishishga zamin yaratadi va oqibatda turli tortishuvlar

masalalarda o'zaro muros bo'lishini ta'minlaydi. Referendum ham fuqarolarning saylov faolligini ifodalovchi ko'rinishlardan biridir [6].

Saylovlardagi kurashlar totalitar jamiyatdan farqli o'laroq demokratik jamiyatda siyosiy partiya faoliyatining asosiy kurash maydoni hisoblanadi. Har bir partiya o'z elektoratini kengaytirishga intiladi. Elektorat (lot. “lektor” - saylovchi) saylovlarda u yoki bu partiya ovoz beradigan saylovchilar kontingentidir. Masalan, sosial-demokratik partiyalar elektoratini asosan ishchilar, ziyolilar, xizmatchilar, mayda mulkdorlar tashkil etadi. AQSH demokratik partiyasi elektoratiga odatda ko'proq mamlakatning rangli aholisi kiradi. Saylovlardan - saylovlargacha u yoki bu partiya elektorati son va sifat jihatlaridan ham o'zgarib turadi. Masalan, Buyuk Britaniyada leyboristlar partiyasi liberallar partiyasini ikki partiyali tizimdan siqib chiqarganlaridan keyin, leyboristlar elektorati liberallar elektorati hisobidan sezilarli darajada ko'paydi [6].

Yangi siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar paydo bo'lishi kuzatilayotgan hozirgi dunyo davlatlarida davom etayotgan ijtimoiy differensiasiya jarayonlari hisobiga saylov bloklari va ittifoqlarini tuzish masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Chunki, birorta siyosiy partiya yakka holatda g'alaba qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa, u holda bu partiya jamoat tashkilotlari saylov oldi kurash jarayonida birgalikdagi harakat qilishning umumiy maqsadlariga erishish, eng asosiysi saylovlarda yutib chiqish uchun saylov bloklariga birlashadilar. Shuningdek bir-biriga yaqin bo'lgan partiyalar nomzodini g'alabasini ta'minlash uchun siyosiy bloklar va ittifoqlarni tashkil etiladi.

“Bundan tashqari, bloklar va ittifoqlar tashkil etish uchun boshqa omillar, ya'ni partiya yoki blokning moliyaviy imkoniyatlari yaxshi bo'lishi lozim bo'ladi. Darhaqiqat, bu omil saylovoldi targ'ibotini keng yoyilishiga imkon yaratadi: nufuzini saylovchilar istagan partiya tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar imidjini (ingliz “image” - qiyofa) yaratish asosiysi maqsadga aylanadi.

Saylovchilar hamda saylov o'tkazilishida o'z nomzodini ko'rsatgan guruh va mazkur nomzodni “panadan” qo'llab-quvvatlab turuvchi, ta'sir ko'rsatuvchi shaxslar nomzodga nisbatan beixtiyor quyidagi talablarni qo'yadilar:

- aniq chegaralangan saylov hududi saylovchilari uchun taniqli bo'lish;

- kasbiy bilimdonlik maxorati;

- notiqlik ko'nikmalarini egallaganligi;

- jismoniy va psixologik jihatlaridan saylovlar davrida ta'sir va to'siqlarga chidamli bo'lishi tabiatan yaxshi sog'liqqa ega bo'lishi;

- vaziyat o'zgarganda tez mo'ljal olish qobiliyatiga ega bo'lish;

- o'z xis extiroslarini boshqara olish;

- telekamera va mikrofon oldida o'zini tabiiy tuta bilishi;

- baxslashish, munozara qilish ko'nikmalarini egallaganligi;

- boshqalar fikrini eshita bilish;

- haqgo'ylik qobiliyatiga ega bo'lishi;

- guruh tarkibida lider yoki yetakchi darajasida bo'la olishi;

- saylovoldi uchrashuvlarida turli xil ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini hisobga ola bilishi” [7].

Bu ro'yxatni yanada davom ettirish mumkin, lekin, uni qisqartirish saylov kompaniyasini muvaffaqiyatli o'tkazishni qiyinlashtirishi ham mumkin. Nomzodni targ'ib qiladigan malakali guruhning faoliyati saylov kompaniyasining asosiy unsuri bo'lib xizmat qiladi. U yoki bu saylov jarayonida

ma'lum bir maqsadli g'alabaga erishishni albatta malakali guruh amalga oshiradi.

Ovoz berish yakunlari bo'yicha saylovlar natijalarini aniqlash asosan ikkita katta saylov tizimi asosida kechadi: proporsional va mojaritar tizimlar. Mojaritar tizimda nomzod yoki nomzodlar ro'yxati qonunda belgilanganidek eng ko'p ovoz olgandagina u yoki bu saylanadigan vakillik organiga saylangan, deb hisoblanishi bilan tavsiflanadi. Ko'pchilik ovoz olish ham har xil bo'ladi. Mutlaq ko'pchilikni (50% + 1 ovoz) talab etuvchi saylov tizimlari ham uchraydi. Bunday tizim, jumladan, Avstraliyada amal qiladi. Majoritar tizimdagi saylovlarda muayyan ko'pchilikning o'z raqiblariga nisbatan ko'proq ovoz olishi ular nomzodining g'alaba qilganligini bildiradi. Uni "marraga birinchi kelganlar tizimi" deb ham atashadi. Hozirgi vaqtda bunday tizim AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiyada kabi mamlakatlarda qo'llaniladi. Ba'zan majoritar tizimning ikki xil ko'rinishi ham qo'llaniladi. Masalan, Fransiyada parlamentga deputatlar saylashning birinchi bosqichida mutloq ko'pchilikning ovoz olish tizimi qo'llanilsa, ikkinchi bosqichda esa nisbatan ko'pchilikning ovoz olish tizimi qo'llaniladi [7]. Shuningdek bu tizim Belgiya, Shvesiya va boshqa ko'p mamlakatlar uchun ham xosdir.

Proporsional tizim ikki xil ko'rinishga ega:

a) umumdavlat darajasidagi proporsional saylov tizimi (saylovchilar butun mamlakat doirasida siyosiy partiyalar uchun ovoz beradilar, unda saylov okruglari belgilanmaydi).

b) ko'p mandatli okruglarga asoslangan proporsional saylov tizimi (deputatlik mandatlar partiyalarning saylov okruglariga nisbatan ta'siri asosida taqsimlanadi). Majoritar va proporsional tizimlar o'zining yutuq va kamchiliklarga ham egadir. Majoritar tizimning ijobiy xususiyatlari shundaki, unda samarali ishlovchi va barqaror hukumatni shakllantirish imkoniyati borligi bilan izohlash mumkin. Shuningdek u katta va yaxshi tashkillashtirilgan partiyalar uchun saylovlarni muvaffaqiyatli o'tkazish imkoniyatini beradi. Majoritar tizimning asosiy kamchiliklari quyidagilardir: 1. Mamlakat saylovchilarning ko'pchilik qismi (ba'zan 50 %ga yaqin) hokimiyat organlarida o'z vakillariga ega bo'lmay qoladilar [7].

Saylovlarda o'z raqibiga nisbatan kam ovoz olgan partiya parlamentda ko'pchilik deputatlik o'rinlarga ega bo'lishi mumkin.

Saylovlarda bir xil yoki bir-biriga yaqin miqdorda ovoz olgan ikkita partiya hokimiyat organida bir xil bo'lmagan miqdordagi nomzodlarni saylanishiga erishadilar. Shunday qilib, majoritar tizim biron-bir partiya yoki blokka vakillik organlarida ko'pchilik ovozlarni va mandatlarini olishga yordam beradi.

"Proporsional tizimning ustun tomonlari to'g'risida quyidagilarni aytish mumkin: uning yordamida jamiyat siyosiy hayotidagi siyosiy kuchlarni joylashishini real va aniq manzaralarini ko'rsatishi mumkin. U fikrlar xilma-xilligi va ko'ppartiyaviylikni rivojlanishini, shuningdek davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni ta'minlab beradi.

Shuningdek proporsional saylov tizimi jamiyatda haqiqiy ma'nodagi muxolifatning shakllanishiga yaxshi sharoit yaratadi va mamlakatda ijobiy ma'nodagi siyosiy raqobat muhitini shakllantiradi. Shuningdek, ushbu tizimning o'ziga xos kamchiliklari ham mavjud.

Proporsional tizimning asosiy kamchiliklari esa quyidagilardir:

1. Hukumatni shakllantirishda murakkabliklar yuzaga keladi. Sababi: biron-bir ustunlik qiladigan partiyaning yo'qligi, har xil maqsad va muddaolardagi partiyalarning ko'ppartiyaviylik asosidagi koalitsiyasini tuzishga majbur bo'lish, bu esa hukumat beqarorligini keltirib chiqarishi;

2. Ovozlarining aniq nomzodlarga emas, balki, partiyalarga berilishi, partiyalar bilan deputatlar o'rtasidagi aloqaning sustligi;

3. Deputatlarning o'z partiyalariga ancha bog'liq bo'lib qolishlari (bu kabi erkinlikni chegaralanishi parlamentda qonunlar va muhim hujjatlar qabul qilish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin).

4. Siyosiy partiya vakillarining radikallashtiruviga imkon yaratishi mumkin" [9].

Xulosa. Yurtimizda 2024 yilgacha saylovlar mojaritar saylov tizimi asosida o'tkazildi. "O'tish davri"da majoritar saylov tizimini qo'llashning yaxshi tomonlari, birinchidan, tinchlik ta'minlanadi, ikkinchidan, davlat hokimiyati oson shakllantiriladi, uchinchidan, "nomunosib nomzod"lar hokimiyatga kelib qolmaydi.

Demokratik qadriyatlar shakllanib borayotgan mamlakatimizda esa bugungi kunga kelib majoritar saylov tizimi demokratik tamoyillarni to'liq ochib bera olmay qoldi. Bunga sabab, birinchidan, majoritar saylov tizimida siyosiy partiyalarga e'tiborning kamligi, ikkinchidan, jamiyatda unchalik katta mavqega ega bo'lmagan siyosiy partiya saylovlarda g'alaba qozonishi, ya'ni parlamentga unchalik katta mavqega ega bo'lmagan siyosiy partiya vakillari ko'proq saylanishi mumkin, uchinchidan, saylangan nomzodning to'liq himoyalanganligida ko'rishimiz mumkin.

Bizning ham maqsadimiz shu, siyosiy partiyalar faoliyatini rivojlantirish orqali jamiyatning barcha jabhalarida o'zaro sog'lom raqobat muhitini vujudga keltirish.

G'arb dunyosida bu tizim shakllanib bo'lgan. Shuning uchun ularda jamiyat qonun ustuvorligi, adolat, inson huquqlarining ta'minlanishi va hokazolar juda yuqori mavqeyda turadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir qancha moddalari partiyalar faoliyati uchun konstitutsiyaviy asos bo'lib xizmat qiladi. Siyosiy partiya tashkil etish huquqi Konstitutsiyaning 39-moddasida mustahkamlangan. Konstitutsiyaning siyosiy partiya uyushish, siyosiy partiya ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqlariga egaligi, ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatni siyosiy partiyadagi huquqlari to'g'risida so'z yuritilgan "Fuqarolik jamiyati institutlari" bobida (XIII bob) siyosiy partiyalar ro'yxatdan o'tkazilishi zarurligi qayd etiladi. Konstitutsiyada, shuningdek siyosiy partiyaning Konstitutsiyaga qarshi xatti-harakatlari taqiqlanadi (71-modda). Siyosiy partiya nisbatan davlatning huquqlari (72-modda), partiyalarga a'zo bo'lish ixtiyoriyligi (73-modda), demokratik faoliyat va moliyaviy ta'minlanish manbalari (73-modda), ularning faoliyatini to'xtatish yoki cheklashda umumiy sudlarning vakolatlari xususida ham so'z yuritiladi. Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari ko'ppartiyalilik asosida saylanishlari ta'kidlanadi [1]. Ko'rinib turibdi-ki, yurtimizda siyosiy partiyalar faoliyatini tashkil etish, ular uchun keng va teng imkoniyatlar yaratish uchun huquqiy maydon yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrda "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmonining to'rtinchi yo'nalishi 79-maqsadida "Yangi O'zbekistonni barpo etishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish" masalasiga alohida e'tibor qaratilishi ham aynan siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonda 2024 yildagi parlament Quyi palatasida saylovlar aralash saylov tizimi asosida ya'ni deputatlarning yarmi bir mandatli majoritar saylov tizimi bo'yicha, qolgan yarmi siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar ro'yxati (proporsional saylov tizimi) bo'yicha o'tkazildi.

Jamiyatda siyosiy partiyalarning rolini oshirish uchun kelgusida yurtimizda proporsional saylov tizimi bo'yicha saylovlarni o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha, yurtimizda proporsional saylov tizimining joriy etilishi birinchidan, fuqarolarning siyosiy ongi va madaniyatini oshishiga, ikkinchidan, siyosiy partiyalarning

faqatgina saylov jarayonlarida emas balki muttasil ishlashlarini natijasida jamiyatda siyosiy partiyalarning o'rni rolini oshishiga, uchinchidan, saylovlar uchun davlat budjetidan ajratiladigan mablag'larni kamroq sarflanishiga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T. :O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonuni 1996 y.
3. O'zbekistonni rivojlantirishning harakatlar strategiyasi. Fuqarolik jamiyati. O'quv-uslubiy qo'llanma. T. 2020 y.
4. Fransiya Respublikasining Konstitutsiyasi. Parij, 1958 y.
5. Italiya Respublikasining Konstitutsiya. Rim. 1947 y.
6. Qirg'izboyev M. Xalq irodasining ifodasi. - Xurriyat, 2002 yil 23 yanvar.
7. Конституционное право зарубежных стран. Под.ред. В.В.Маклакова. М: Юристъ, 1996.
8. <https://huquq.uz/2020/11/23/dunjo-konstitutsialari/>
9. [https://www.lex.uz/home/dictionary?word=% Proporsional saylov tizimi](https://www.lex.uz/home/dictionary?word=%20Proporsional%20saylov%20tizimi)